

# Keksalarni e'zozlash ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos fazilatdir



Keksalarni e'zozlash ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos fazilatdir

Termiz shahridagi "Shodlik" mahalla fuqarolar yig'ini binosida Mahalla fuqarolar yig'inlarida harbiy xizmatga chaqiriq yoshidagilar bilan Mudofaa vazirligi faxriylari, keksalar va nuroniylar ishtirokida "Keksalar o'giti - yoshlarga ibrat" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Tadbirni Janubiy operativ qo'mondonligi, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik I.Pirmamatov, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Surxondaryo viloyat mintaqaviy bo'limi a'zolari viloyat MIB Faxriylar bilan ishlash bo'limi boshlig'i T.O'rinov va O'zbekiston Respublikasi "Veteran" jangchi-faxriylar va nogironlar viloyat kengashi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi bo'limi, Termiz shahar ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, "Shodlik" MFY raisi va hokim

yordamchisi, Yoshlar yetakchisi va viloyat MIB huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazida chaqiriluvchilari hamda mahalliy yoshlar ishtirok etdi.

Ushbu tadbirdan ko'zlangan maqsad, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularning qalbida va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishdir.

Shuningdek yoshlarda yon-atrofimizda va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondoshish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir.

Tadbirda yoshlarga buyuk ajdodlarga munosib bo'lish, yurtimiz taraqqiyotiga dahldorlik hissi bilan yashash har birimizning, ayniqsa, yoshlarning muqaddas burchi ekanligi singdirilayotgani, qolaversa mudofaa sohasida faoliyat yuritgan katta va o'rta avlod vakillari o'z hayotiy tajribalari, bosib o'tgan ibratli umr yo'llari haqida qiziqarli va jonli tarzda maroq bilan hikoya qilishgani har bir avlod vakillarining shu yurtning tinchligi va mustaqilligini asrab avaylash borasidagi dahldorligini oshishiga xizmat qiladi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

